

Press-tur 2020

// 04.03.2020

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/presstour2020>



"O'zbekimiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan tizimidagi korxonatashkilotlar faoliyati bilan jurnalist va blogerlarni yaqindan tanishtirish va OAV orqali yoritish tizimini takomillashtirish yuzasidan 2020 yil davomida Press-tur tashkil etish rejasi tasdiqlandi.

Ushbu rejaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 apreldagi "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish to'g'risida"gi PQ-4265-sonli Qarorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyati tomonidan amalga oshirilgan ishlar va joriy yil hayotga tadbiiq etilishi rejalashtirilgan yangi loyihalar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida ilk Press-tur 2020 yil 4 mart kuni Navoiy viloyatida tashkil etildi.